

O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORI

VOL. 2 ISS: 1 (2025)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN  СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА 

INSURANCE



№	MUNDARIJA	Page
1.	YASHIL SUG'URTA ORQALI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH VA EKOLOGIYANI ASRASH <i>Yuldashev Akromjon Qurbonnazarovich, To'rayev Sherxon Mo'min o'g'li</i>	3
2.	IQLIM O'ZGARISHI TA'SIRIDAGI MOLIYAVIY YO'QOTISHLARDAN HIMOYALASHDA INDEKS SUG'URTALASHNI JORIY ETISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI <i>Yadgarov Akram Akbarovich</i>	6
3.	O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUG'URTA BOZORINING RIVOJLANISH JARAYONLARI TAHLILI <i>Nurullaev Abdulaziz Sirojiddinovich</i>	9
4.	СУГУРТА БОЗОРИ ВА МОЛИЯВИЙ КОНВЕРГЕНЦИЯ ЖАРАЁНИДА УНИНГ ТРАНСФОРМАЦИЯСИ <i>Халиков Умид Рахматуллаевич</i>	13
5.	СУГУРТА КОМПАНИЯЛАРИНИНГ МОЛИЯВИЙ РЕСУРСЛАРИНИ ЖОЙЛАШТИРИШ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ <i>Маврулова Нилуфар Абдухалиловна</i>	18
6.	REGULATORY AND FINANCIAL BARRIERS TO SME DEVELOPMENT IN EMERGING MARKETS (IN CASE OF UZBEKISTAN) <i>Tojiyev Abror Rakhmonalievich, Rakhmonaliev Abbos Abror ugli</i>	21
7.	TIJORAT BANKLARIDA CHAKANA BANK MAHSULOTLARINI SOTISH AMALIYOTINING RIVOJLANGAN DAVLATLAR TAJRIBASI <i>Yunusova Shaxlo Raximdjanoyna</i>	24
8.	USING MARKETING STRATEGIES TO ENHANCE THE COMPETITIVENESS OF THE NATIONAL ECONOMY <i>Bobomurodov Kayimjon Homidovich</i>	29
9.	НЕЙРОМАРКЕТИНГ И ПОВЕДЕНИЕ ПОТРЕБИТЕЛЕЙ: ГЛУБОКОЕ ПОНИМАНИЕ МЕХАНИЗМОВ ВЫБОРА <i>Юлдашев Жамшид Абрарович</i>	32
10.	ЎЗБЕКИСТОН АҲОЛИСИ ТУРМУШ ДАРАЖАСИДАГИ ТАФОВУТЛАРИНИНГ ИҚТИСОДИЙ- СТАТИСТИК ТАХЛИЛИ <i>Илёсова Дилбар Исмоил қизи</i>	35
11.	KORPORATIV TUZILMALARDA AKSIYALAR BOZORIDAN MOLIYAVIY RESURLAR JALB QILISHNI TAKOMILLASHTIRISH <i>Xasanov Xayrullo Nasrullayevich</i>	38
12.	ISHSIZLIKNI KAMAYTIRISH UCHUN KICHIK VA O'RTA BIZNESNI RIVOJLANTIRISH <i>Muhammadjonova Iroda Bahodir qizi, Tohirjonov Rahmatillo Farhodjon o'g'li, Hayitaliyev Jahongir Komiljon o'g'li</i>	41
13.	SOLIQ BAZASINI ANIQLASH METODOLOGIYASIGA OID UMUMIY NAZARIYA VA YONDASHUVLAR <i>Xalikchayeva Sadokat Ilxomjonovna</i>	43



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUG'URTA BOZORINING RIVOJLANISH JARAYONLARI TAHLILI

Nurullaev Abdulaziz Sirojiddinovich

TDIU, mustaqil izlanuvchi, i.f.n., dotsent

email: aleks_4240@mail.ru

ARTICLE INFORMATION	ABSTRACT
Volume: 2 Issue: 1 DOI: https://doi.org/10.55439/INS/vol2_iss1/244	Ushbu maqolada raqobat muhiti sharoitida sug'urta bozorida sug'urta kompaniyalari faoliyatini rivojlanishi ierarxiyasi tahlil qilingan. Shuningdek, tarmoq va sohalarda faoliyat yurituvchi sub'ektlarni turli risklardan sug'urtalashda sug'urta faoliyatini yanada rivojlantirishning dolzarbligi asoslab berilgan. Maqolada sug'urta bozorini rivojlantirish borasida olib borilayotgan islohotlar hamda sug'urta bozorini rivojlanish ko'rsatkichlari rivojlanish bosqichlariga bo'lgan holda tahlil qilingan hamda sug'urta bozorida raqobat muhitini rivojlantirish borasida amaliy tavsiyalar keltirilgan.
KEYWORDS	<i>sug'urta bozori ierarxiyasi, sug'urta faoliyati, sug'urta xizmatlari, sug'urta mukofoti, sug'urta to'lovi, sug'urta shartnomalari.</i>

Kirish (Введение /Introduction)

Shiddatli raqobat muhiti sharoitida iqtisodiyot tarmoqlarida faoliyat yuritayotgan turli mulkchilik shaklidagi xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatiga turli ko'rinishdagi risklar ta'siri ortib bormoqda. Risklarning ortishi har qanday korxonaning moliyaviy holatiga salbiy ta'sir qiladi. Sug'urta faoliyatining samarali tashkil etilishi xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning kutilmagan risklardan moliyaviy jihatdan himoyalash hamda ko'rilgan iqtisodiy zararlarini qoplash orqali moliyaviy inqirozni kamaytirish imkoniyati yaratiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirishning kompleks chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-108-sonli qarorining ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-iyuldagi 458-sonli "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar belgilanganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek, ba'zilarini o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risida" gi Qaroriga ko'ra, Sug'urta bozorini rivojlantirish agentligi faoliyati tugatildi [1].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 2-sentyabrdagi PQ-291-sonli qaroriga muvofiq, Iqtisodiyot va moliya vazirligining sug'urta tashkilotlari faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish bo'yicha vazifalar, funktsiya va vakolatlarni Istiqbolli loyihalar agentligiga o'tkazish belgilab quyildi [2].

Sug'urta bozorida faoliyat yuritayotgan sug'urta kompaniyalarning aksariyati litsenziyaga ega bo'lgan holda sug'urta faoliyati bilan shug'ullanadi, biroq, bugungi kunga kelib, ixtiyoriy sug'urtaga nisbatan majburiy sug'urtaning salmog'i oshib bormoqda. Mazkur ilmiy-tadqiqot ishi nazariy hamda uslubiy jihatdan sohadagi muammolarni o'rganishga qaratilgan.

Adabiyotlar sharhi (Обзор литературы/Literature review)

Sug'urta bozorini rivojlantirish borasida MDH olimlari ham o'zlarining amalga oshirgan ilmiy-tadqiqotlari bilan ajralib turadi. Xususan, rossiyalik olim Ye.G.Knyazevoy boshchiligidagi "Straxovanie" nomli darsligida sug'urta bozori haqida quyidagicha talqin qilingan: "Milliy iqtisodiyotda sug'urta jismoniy va yuridik shaxslarning mulkiy manfaatlarini turli risklardan samarali himoya qiluvchi moliyaviy vositalardan biridir. Sug'urta bozori - sotib olinadigan asosiy sug'urta

mahsuloti iqtisodiy munosabatlar yig'indisi. Sug'urta bozorining tuzilishi sug'urta ishtirokchilari faoliyati bilan tavsiflanadi" [3].

Rossiyalik tadqiqotchi Yu.T.Axvlediani ham o'z tadqiqotlarida sug'urta bozorini rivojlantirishga qaratgan bo'lib, xususan, sug'urta bozorining samarali rivojlanishi makroiqtisodiy ahamiyatga egaligi, u mamlakat moliya bozorida yangi sug'urta vositalarini shakllantirishga yordam berishi, jamiyatda ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashi, jismoniy va yuridik shaxslarning mulkiy manfaatlarini kafolatlangan himoya qilish tizimining muhim elementi hisoblanishi haqida fikr bildirgan [4].

O'zbekistonda sug'urta bozorini nazariy jihatdan rivojlanishini tadqiq qilgan iqtisodchi olim X.M.Shennaev istiqbol yillarida sug'urta bozorining rivojlanish davrini bosqichlarga ajratgan holda o'rgangan. Shuningdek, olim o'z izlanishlarida sug'urat bozorining rivojlanish davrlarida amalga oshirilgan islohotlarga ham alohida to'xtalib o'tgan [5].

O'zbekistonda sug'urta faoliyati rivojlanishini boshqarish borasida ilmiy izlanishlar olib borgan iqtisodchi olim S.A.Umarov ham respublika sug'urta bozori rivojlanishini bosqichma-bosqich tadqiq qilgan. Shu bilan birga, mamlakat sug'urta bozorini rivojlantirish borasidagi institutsional jarayonlarini o'rgangan holda sug'urta faoliyatini me'yoriy-huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratgan [6].

Sug'urta bozorida sug'urta faoliyatini rivojlantirish borasida tadqiqotlar olib borgan I.Abduraxmonov ham sug'urta bozorini rivojlantirish borasida o'ziga xos darajada yondashgan bo'lib, sug'urta bozori – bu xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasida ularning hayotida yoki faoliyatida turli xil noqulay tabiiy hodisalar, texnogen, iqtisodiy va ijtimoiy xarakterga ega holatlarning yuzaga kelish riski munosabati bilan ularning mulkiy va boshqa manfaatlarini ta'minlash va himoya qilish bo'yicha sug'urta munosabatlarini amalga oshiruvchi mexanizmdir [7].

Tadqiqot metodologiyasi (Methods/Методы).

Mazkur tadqiqot ishida sug'urta bozorini rivojlanish tendensiyalari bosqichma-bosqich tahlil qilingan. Sug'urta bozori rivojida olib borilgan islohotlar va uning natijalari tadqiq qilingan. Tadqiqot davomida tizimli tahlil va guruhlash, statistik tartibga solish, taqqoslash usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi (Анализ и результаты/ Analysis and results).

Xalqaro Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) bergan ma'lumotlariga ko'ra, sug'urta mukofotlari tushumi Fransiya, Buyuk Britaniya, Amerika qo'shma shtatlarida o'rtacha YaIM ning 12,4 foizini tashkil etgan. Sug'urta mukofotlarining o'sish sur'ati 2023-yilda 6,2 foizgacha o'sgan [13].

Shuningdek, xalqaro reyting agentliklari bergan ma'lumotlariga ko'ra, "New Frontier" tashkiloti ma'lumotlariga asosan, jami sug'urta mukofotlarining yalpi ichki mahsulotga nisbati sug'urtaning kirib kelish darajasi ko'rsatkichi dunyo miqyosida 6,35 foizni, O'zbekistonda esa 0,35 foizni tashkil etgan [14].

Cug'urta faoliyatida raqobat muhitini shakllanishiga olib kelgan hamda sug'urta bozorini rivojlantirish borasidagi islohotlarning samarali amalga oshirilishi natijasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997-yil 18-fevraldagi PF-1710-sonli "O'zbekinvest" eksport-import milliy sug'urta kompaniyasini tashkil etish to'g'risida" gi Farmoni [8], 1997-yil 25-fevraldagi PF-1713-sonli "O'zagrosug'urta" davlat aksiyadorlik sug'urta kompaniyasini tashkil qilish to'g'risida" gi Farmoni [9], 1997-yil 14-martda "Kafolat" sug'urta kompaniyasi [10], O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 26-iyuldagi 292-sonli "Madad" sug'urta agentligini tashkil etish va uning faoliyati masalalari to'g'risida" gi qarorlari qabul qilindi [11].

O'zbekiston sug'urta bozori rivojlanishi borasida tahlillarga nazar tashlaydigan bo'lsak, o'tgan 1993-1996 yillar davomida respublikamiz sug'urta bozorida faoliyat yuritib kelgan davlat va nodavlat sug'urta tashkilotlari tomonidan sug'urta faoliyatini olib borish natijasida 1993-yilda majburiy sug'urta badalining umumiy hajmi 21 871,9 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, joriy davrda ixtiyoriy sug'urta badalining hajmi 4 856,4 ming so'mni tashkil etgan holda majburiy sug'urtaga nisbatan 4,5 marta kamligidan dalolat beradi.


O'zbekiston sug'urta bozorining 1997-2001 yillardagi rivojlanish ko'rsatkichlarining o'zgarish holatiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, aynan ushbu yillar bevosita sug'urta bozori rivojlanishdagi muhim islohotlar yili bo'ldi desak mulohaza qilmaymiz. Xususan, sug'urta bozoriga "O'zbekinvest" eksport-import milliy sug'urta kompaniyasi, "O'zagrosug'urta" davlat aksiyadorlik sug'urta kompaniyasi, "Kafolat" sug'urta kompaniyasi, "Madad" sug'urta agentliklari hamda nodavlat mulk shaklidagi sug'urta kompaniyalarining tashkil etilishi sug'urta faoliyati rivojlanishiga muhim poydevor yaratib berdi.

Sug'urta faoliyatini rivojlantirish borasida amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlarning samarasi sifatida 2002-yilda qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar bevosita sug'urta bozorini rivojlanishiga hissa qo'sha oldi. O'zbekiston Respublikasining "Sug'urta faoliyati to'g'risida" gi qonuning qabul qilinishi umumiy va hayotni sug'urtalash faoliyatini rivojlanishiga zamin yaratdi.

Milliy sug'urta bozori rivojlanishi 2002-2010 yillar o'ziga xos darajada rivojlanish davri bo'ldi desak xato qilmaymiz. Aynan ushbu davr mamlakat sug'urta bozorining har tomonlama ustuvor rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratib berdi. Respublikamiz sug'urta bozorida bevosita sug'urtalovchi davlat va nodavlat sug'urta kompaniyalari soni va ular tomonidan ko'rsatilayotgan sug'urta xizmatlari sifat jihatdan

yaxshilandi, sug'urta faoliyatida kadrlar tayyorlash va malakasini oshirishga bo'lgan e'tibor yanada ortdi, shu bilan birga sug'urta faoliyatida yangi sug'urta xizmatlari tatbiq etildi.

O'zbekiston sug'urta bozorida 1997-2023 yillarda faoliyat yuritgan sug'urta kompaniyalari soni 27 yil mobaynida o'ziga xos rivojlanish darajasiga ega bo'ldi. 1997-yilda respublika sug'urta bozorida sug'urta kompaniyalari soni 25 tani tashkil etgan bo'lsa, 2023-yil yakunlariga 42 taga yetdi. Sug'urta bozorida sug'urta kompaniyalarining ko'payish tendensiyasi asosan 2009 yildan boshlab majburiy sug'urta turlarining kirib kelishi va majburiy sug'urtaga oid litsenziyaga qiziqish sug'urta kompaniyalari o'rtasida ortganligi, sug'urta kompaniyalari sonin oshishiga sabab bo'ldi. 2022-yilda hayotni sug'urtalashda ayrim kompaniyalarning litsenziyasining bekor qilinishi sug'urta kompaniyalari



1-rasm. Milliy sug'urta bozorida 1997-2023 yillarda faoliyat yuritgan sug'urta kompaniyalari soni, birlik

Manba: O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlari asosida tadqiqotchi tomonidan tuzilgan.

soni pasayishiga sabab bo'ldi (1-rasmga qarang).

Respublikamizning makroiqtisodiy rivojlanishini belgilab beradigan yalpi ichki mahsulot hajmi 2014-yilda 177 154 mlrd.so'mni tashkil etgan bo'lib, shu davrda to'plangan sug'urta mukofotining hajmi 439,1 mlrd.so'mni tashkil etgan holda YaIM nisbatan ulushi 0,25 foizni tashkil etgan.

Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2014-yilda mamlakat aholisi 30 492 800 kishini tashkil etgan bo'lib, aholi jon boshiga to'g'ri kelgan sug'urta mukofotining hajmi 14,4 ming so'mni tashkil etgan. Shu davrda sug'urta kompaniyasining sug'urta xizmatlarini ko'rsatish natijasida zararlilik darajasi 16,9 foizni tashkil etgan (1-jadvalga qarang).

Mamlakatimizda YaIM hajmi 2023-yilda 1 066 569,0 mlrd.so'm (ya'ni 1 kvadrilion) dan oshgan holda tushgan sug'urta mukofoti hajmi 6106,1 mlrd.so'mni tashkil etgan holda YaIM da sug'urta mukofotining ulushi 0,57 foizni tashkil etgan. Shu davrda aholi jon boshiga to'g'ri kelgan sug'urta mukofotining hajmi 169,5 ming so'mni tashkil etgan.

Aytish joizki, 2023-yilda 2014-yilga nisbatan sug'urta kompaniyalari soni 11 taga ortgan holda jami sug'urta mukofoti tushumi 14 barobarga ortganligini ko'rish mumkin. Shu bilan birga, YaIM da sug'urta mukofotining ulushi 2,3 martaga ortganligini ko'rish mumkin. Sug'urta


1-jadval

Mamlakat sug'urta bozorining rivojlanish ko'rsatkichlari tahlili											
No	Ko'rsatkichlar	2014 y.	2015 y.	2016 y.	2017 y.	2018 y.	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y.
1.	Sug'urtalovchi kompaniyalar soni, birlik	31	30	26	27	30	36	40	42	38	42
2.	Yalpi ichki mahsulot hajmi, mlrd.so'm	177154	210189	242496	302537	406649	510117	580203	734587,7	896617,9	1066569,0
3.	Yalpi tushgan sug'urta mukofoti, mlrd.so'm	439,1	515,7	692,6	927,5	1635,2	2313,9	2213,7	3732,8	5078,6	6106,1
4.	Yalpi ichki mahsulotda jami sug'urta mukofoti ulushi, %	0,25	0,24	0,28	0,31	0,40	0,45	0,38	0,51	0,56	0,57
5.	Respublika aholi soni, mln. kishi	30492,8	31022,5	31575,3	32120,5	32656,7	33255,5	33905,2	34558,9	35271,3	36024,9
6.	Aholi jon boshiga to'g'ri kelgan sug'urta mukofoti hajmi, ming so'm	14,4	17,0	22,0	29,0	50,0	69,5	65,2	108,0	144,0	169,5
7.	Yalpi to'plangan sug'urta tovonlari, mlrd.so'm	74,6	111,0	130,5	270,0	460,8	813,5	732,3	1232,3	2596,8	2021,9
8.	To'plangan sug'urta tovonlarining sug'urta mukofotiga nisbati, % da	16,9	21,5	18,8	29,1	28,1	35,1	33,1	33,0	51,1	33,1

Manba: O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlari asosida tadqiqotchi tomonidan tuzilgan.

faoliyati natijasida amalga oshirilgan operatsiyalarning zararlilik darajasi 2022-yilda 51,1 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yil holatiga ko'ra zararlilik darajasi 33,1 foizni tashkil etgan va o'tgan yilga nisbatan 18 foizga kamayganligini ko'rish mumkin (1-jadvalga qarang).

Oxirgi o'n yillikda mamlakat sug'urta bozorida faoliyat yuritgan sug'urta kompaniyalari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar ulushi ortib bormoqda, xususan, 2014-yilda 31 ta sug'urta kompaniyasi faoliyat yuritgan bo'lib, sug'urta kompaniyalariga tushgan sug'urta mukofoti hajmi 439,1 mlrd.so'mni tashkil etgan bo'lib turli risklar va tabiiy ofatlardan ko'rilgan zararlarni qoplash maqsadida 74,6 mlrd.so'm sug'urta tovonlari to'lab berilgan bo'lib, sug'urta mukofotiga nisbatan ulushi 16,9 foizni tashkil etgan (2-rasmga qarang).



2-rasm. Sug'urta bozorida 2014-2023 yillarda sug'urta kompaniyalarining sug'urta mukofotlari tushumi va sug'urta qoplamalari hajmining o'zgarish dinamikasi, mlrd.so'm

Manba: O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlari asosida tadqiqotchi tomonidan tuzilgan.

2023-yilga kelib, 42 ta sug'urta kompaniyalari sug'urta bozorida faoliyat yuritgan bo'lib, tushgan sug'urta mukofoti hajmi 8059,7 mlrd.so'mni tashkil etgan holda to'langan sug'urta tovonlari hajmi 2022,1 mlrd.so'mni tashkil etgan holda sug'urta mukofotlariga nisbatan sug'urta tovonining ulushi 25,0 foizni tashkil etgan (2-rasmga qarang).

2-jadval

Sug'urtalovchilarning tabaqalashtirilgan ustav kapitalining eng kam miqdorlari (mln.so'm) [12]

№	Sug'urta faoliyati turlari	2025-yil 1-oktabrdan		
		2025-yil	2027-yil	2029-yil
1	Umumiy sug'urta sohasida ixtiyoriy sug'urta	35 000	45 000	60 000
2	Umumiy sug'urta sohasida majburiy sug'urta	50 000	75 000	100 000
3	Hayotni sug'urta qilish sohasida ixtiyoriy sug'urta	25 000	30 000	35 000
4	Hayotni sug'urta qilish sohasida majburiy sug'urta	40 000	45 000	50 000
5	Faqat qayta sug'urta	80 000	100 000	120 000

Yurtimizda sug'urta bozorini yanada rivojlantirish, zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish orqali sug'urta xizmatlarining ommabopligini va sifatini oshirish, sug'urta sohasini tartibga solishni yanada takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 1-martdagi PQ-108-sonli "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirishning kompleks chora-tadbirlari to'g'risida"

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 30.07.2024-yildagi 458-sonli "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar belgilanganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek, ba'zilarini o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risida" gi Qarori. <https://lex.uz/docs/7045077>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.09.2023-yildagi PQ-291-son "Kapital bozorini rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori. <https://lex.uz/docs/6590025>
3. Страхование: учебник / [Е.Г.Князевой, О.А.Бойтуш, Т.Д.Одинокова, Е.А.Разумовская, Л.И.Юзвович, Ю.Т.Ахвледиани]. под общ.ред. Е.Г.Князевой; М-во науки и высшего обр. Рос. Федерации, Урал. гос. экон. ун-т. – Екатеринбург: Из-во Урал ун-та, 2019. С. 223.
4. Рынок страховых услуг: современные тенденции и перспективы развития: монография / Ю.Т. Ахвледиани. - Москва: РУСАЙНС, 2017. 5-7 стр.
5. Shennaev X.M. O'zbekiston Respublikasida sug'urta faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari//08.00.07-"Moliya, pul muomilasi va kredit" ixtisosligi bo'yicha i.f.d. (DSc) darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati. TMI: 2021. 84 b.
6. Umarov S.A. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida O'zbekistonda sug'urta faoliyatini rivojlanishini boshqarish. 08.0013 – "Menejment" ixtisosligi bo'yicha i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T. 2012. 78-95-betlar.
7. I.Abduraxmonov. Sug'urta bozori: zamonaviy holat va rivojlanish tendensiyalari. "Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil" ilmiy elektron jurnal. IV-son-Aprel, 2024. 309-319 betlar.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 18.02.1997 yildagi PF-1710-son "O'zbekinvest" eksport-import milliy sug'urta kompaniyasini tashkil etish to'g'risida" gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/168879>
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 25.02.1997 yildagi PF-1713-son "O'zagrosug'urta" davlat aksiyadorlik sug'urta kompaniyasini tashkil qilish to'g'risida" gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/358335>

gi qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga ko'ra, sug'urtalovchilarning tabaqalashtirilgan ustav kapitalining eng kam miqdorlari belgilab berildi (2-jadvalga qarang).

Respublikamiz sug'urta bozorida raqobat muhitini shakllantirish maqsadida qabul qilingan ushbu qaror bevosita sug'urta kompaniyalari ustav kapitalining eng kam miqdorlari tasdiqlanib, 2-jadvalda belgilangan sug'urta faoliyati turlari bo'yicha ustav kapitalini shakllantirmagan sug'urta kompaniyalari o'z faoliyatini to'xtatishlari lozim.

"Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirishning kompleks chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-108-sonli qaroriga muvofiq "Yo'l xaritasi" ishlab chiqilib unga ko'ra, xalqaro sug'urta tamoyillari asosida sug'urta xizmatlari iste'molchilari manfaatlarini himoya qilishga, shuningdek sug'urta sohasini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlarni takomillashtirishga qaratilgan me'yoriy-huquqiy bazani yaratish, sug'urta faoliyatini rivojlantirish borasida xorijiy davlatlarning ilg'or sug'urta tajribasini joriy etish orqali milliy sug'urta bozori infratuzilmasini kengaytirish, sug'urta bozorini jadal raqamlashtirish va sug'urta bozori professional ishtirokchilari faoliyatini tartibga solishning zamonaviy usullarini joriy qilish orqali sug'urta xizmatlari sifatini va ommabopligini oshirish, sug'urta bozorida mutaxassislar tayyorlash tizimini takomillashtirish, sug'urta sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish hamda aholi va tadbirkorlarning sug'urta madaniyatini oshirish masalalari belgilab berildi.

Xulosa va takliflar (Заключение/Conclusion).

Mamlakatimizda sug'urta sohasidagi asosiy muammolarning biri sifatida sohada sug'urta xizmatlarining yetarli darajada ko'rsatilmaligi, shuningdek, sohada aynan sug'urta bo'yicha o'z malaka va amaliy tajribasiga ega mutaxassislar yetishmasligi yoki faoliyat yuritayotgan soha vakillarining mutaxassisligi mos kelmasligi kabi o'z yechimini kutayotgan muammolar mavjudligidan dalolat beradi.

Uzoq yillik tadqiqotlarimizdan shuni xulosa qilish mumkinki, respublikamiz sug'urta bozori o'ziga xos tadrjiy rivojlanish bosqichlarini bosib o'tdi. Sug'urta bozorida yigirma sakkiz yildan beri sug'urta faoliyatini rivojlantirish borasida iqtisodiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu esa raqobat muhiti sharoitida sug'urta kompaniyalari o'rtasida raqobatga bardosh berish va raqobat maydonida kurashish imkoniyatini ta'minlab berdi.

Barqaror rivojlanishni ta'minlash maqsadida sug'urta sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar negizida davlat tashkilotlarining sug'urta faoliyatiga aralashuvini oldini olish, sohadagi qonun va qonun osti hujjatlarni takomillashtirish, sug'urta kompaniyalari xodimlarini malakasini oshirish va qayta tayyorlash mexanizmini takomillashtirish, sug'urta faoliyati orqali ko'rsatilayotgan xizmatlar bo'yicha sug'urtalanuvchilarning talab va istaklarini turli ijtimoiy so'rovnomalar orqali o'rganib borish, sug'urta tariflarini aholi daromadlaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqish va moslashtirish, sug'urtaga bo'lgan ishonchni oshirish va sug'urta faoliyati bo'yicha aholi savodxonligini oshirish kabi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq.

-
10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 14.03.1997 yildagi 144-son “Kafolat” davlat aksiyadorlik sug'urta kompaniyasini tashkil etish to'g'risidagi” gi qarori (Ushbu qaror O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 09.10.2017 yildagi PQ-3317-son “Kafolat” sug'urta kompaniyasi aksiyadorlik jamiyati faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” gi qaroriga asosan o'z kuchini yo'qotgan). <https://lex.uz/uz/docs/3371666>
 11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 26.07.1995 yildagi 292-sonli “Madad” sug'urta agentligini tashkil etish va uning faoliyati masalalari to'g'risida” gi qarori (Hujjat 01.01.2017 yil o'z kuchini yo'qotgan). <https://lex.uz/docs/482142>
 12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 01.03.2024 yildagi PQ-108-son “Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirishning kompleks chora-tadbirlari to'g'risida” gi qarori. <https://lex.uz/docs/6824178>
 13. https://www.oecd.org/en/publications/global-insurance-market-trends-2024_5b740371-en.html
 14. Business News Today: Read Latest Business news, India Business News Live, Share Market & Economy News The Economic Times. <https://economictimes.indiatimes.com>.